



**TIRNOQGUL (COLLENDULA OFFECINALIS) O'SIMLIGINING
KOSMETOLOGIYA SOHASIDA ISHLATILISHI**

Sharipova Maftuna Chori qizi

*Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti
1-bosqich magistranti*

Q.x.f.f.d. To'rakulov Alimardon Abdusalomovich

Annatsiya: *Olib borilgan izlanishlar natijasida tirnoqgul o'simligining dorivorlik xususiyatlari, uning kosmetologiya sohasida bugungi kundagi ahamiyati o'rganilgan. Dorivor tirnoqgul o'simligi o'zida ko'pgina dorivorlik xususiyatlarini jamlaganligi uchun ham bugungi kunda unga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda.*

Kalit so'zlar: *tirnoqgul, collendula offecinalis, kosmetologiya, ekstrakt, saponin, teri kasalliklari, bakteriya, zamburug', damlama, efir moylari.*

Аннотация: *в результате проведенных исследований были изучены лечебные свойства гвоздичного растения, его значение в области косметологии на сегодняшний день. Даже потому, что лекарственное гвоздичное растение концентрирует в себе многие лечебные свойства, спрос на него сегодня растет день ото дня.*

Ключевые слова: *Гвоздика, collendula offecinalis, косметология, экстракт, сапонин, кожные заболевания, бактерии, грибки, настойки, эфирные масла.*

Annotation: *as a result of the research carried out, the medicinal properties of the Nail plant, its importance in the field of Cosmetology today are studied. Even today, the demand for it is increasing day by day, since the medicinal Nail plant concentrates many medicinal properties in itself.*

Keywords: *finger nail, collendula offecinalis, cosmetology, extract, saponin, skin diseases, bacteria, fungus, tincture, essential oils.*

Kirish. Hozirgi kunda kosmetologiyada tabiiy o'simlik komponentlaridan foydalanish keng tarqalgan. O'simliklardan olingan dorilarga talabning oshib borishi ularning organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-noyabrdagi qaroriga muvofiq dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shunga ko'ra bugungi kunda farmaseftika sohasida o'zing o'rniga ega bo'lib kelayotgan o'simliklardan biri bo'lgan tirnoqgul (Collendula offecinalis L.)



o'simligidan ham hozirda keng foydalanilmoqda. Uning ekstraktlari, yog'lari va damlamalariteri parvarishida muhim ahamiyatga ega. Tirnoqgul (*Collendula officinalis* L.) Asteraceae oilasiga mansub bo'lib, asosan Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerika hududlarida tarqalgan. Ushbu o'simlikning dorivor xususiyatlari qadimdan ma'lum bo'lib, u xalq tabobati, dermatologiya va kosmetologiyada keng qo'llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tirnoqgul ekstraktining tarkibida flavanoidlar, karotinoidlar, saponinlar va triterpenoidlar mavjud bo'lib, ular yallig'lanishga qarshi, antibakterial va antioksidant ta'sir ko'rsatadi.

Tirnoqgulning kosmetologik samaradorligi uning kimyoviy tarkibi bilan bevosita bog'liq. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra tirnoqgul quydagi asosiy biologik faol moddalarni o'z ichiga oladi:

- **Flavanoidlar:** yallig'lanishga qarshi va antioksidant ta'sir ko'rsatib, terini erkin radikallardan himoya qiladi..
- **Karotinoidlar (beta-karotin, luten, zeaksantin):** Terining fotozararlanishini oldini oladi va qarishga qarshi ta'sir ko'rsatadi shuningdek terining regeneratsiyasini rag'batlantiradi va uni quyosh nuridan himoya qiladi.
- **Saponinlar va triterpenoidlar:** hujayra regeneratsiyasini yaxshilab, terini tiklash jarayonini tezlashtiradi. Terini yumshatadi va elastikligini oshiradi.
- **Efir moylari:** antibakterial va antiseptik bo'lib yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu komponentlar tirnoqgulni kosmetologiya sohasida samarali vositaga aylantiradi. Tirnoqgul ekstrakti akne va teri yallig'lanishiga qarshi samarali vosita sifatida tanilgan. Bunda u teridagi husunbuzarlarni kamaytirib, terini tinchlantiradi va tiklaydi. Tadqiqotlarda tirnoqgulning **Propionibacterium acnes** va **Staphylococcus aureus** kabi bakterialarga qarshi samarali ekani aniqlangan. Kosmetologiyada u yuz loseonlari, niqoblar va kremlarning tarkibiga qo'shiladi.

Terini yoshartiruvchi va tiklovchi xususiyati Antioksidantlarlar va karotinoidlarning yuqori konsentratsiyasi sababli, tirnoqgul qarishga qarshi (antiaging) kosmetik vositalarda ishlatiladi. Shuningdek, klinik sinovlar natijasida terining tiklanish tezligi 30% ga oshgani aniqlangan. Muntazam tirnoqgul ekstraktini qo'llanilishi natijasida:

- Kollogen sintezini rag'batlantiradi,
- Terining elastikligini oshiradi
- Quyosh nurlaridan kelib chiqadigan zararli ta'sirni kamaytiradi.
- Ayniqsa, atopik dermatit va ekzemada ijobiy natijalar beradi.



Soch va bosh terisini parvarish qilishda Tirnoqgul ekstrakti kepakni kamaytish va soch ildizlarini mustahkamlash uchun shampun va balzamlar tarkibiga ham qo'shiladi. U bosh terisini tinchlantiradi va qichishishni oldini oladi. Tirnoqgul tarkibidagi flavanoidlar, karotinoidlar quyosh nurlaridan kelib chiqadigan zarali ta'sirlarni kamaytiradi. **SPF (sun protection factor)** ko'rsatkichi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tirnoqgul ekstrakti tarkibida bo'lgan kremlar tabiiy quyoshdan himoyalayuvchi vosita sifatida ham foydalanish mumkin.

Uy sharoitida tirnoqgul gullaridan tayyorlanadigan kosmetik vositalar

1. Tirnoqgul tonigi (losion).

Tarkibi: Quritilgan tirnoqgul gullari-2 osh qoshiq. Qaynagan suv-200 ml

Tayyorlanishi:

- 1) Tirnoqgul gullari qaynagan suvga soling.
- 2) 30 daqiqa damlab qo'yiladi
- 3) Sovugach, suzib olinadi.

Qo'llanilishi:

- Ertalab va kechqurun yuzni tozalash uchun ishlatiladi.
- Yog'li va aknega moil teri uchun ayniqsa foydali.

Yuz niqobi tayyorlash:

- Tirnoqgul damlamasi-1 osh qoshiq
- Asal - 1 choy qoshiq
- Jo'xori uni - 1 choy qoshiq

Tayyorlanishi:

- 1) Barcha ingedrentlar aralashtiriladi
- 2) Tozalangan yuz terisiga suriladi
- 3) 15-20 daqiqadan so'ng iliq suv bilan yuvib tashlanadi

Ushbu usul yordamida teri oziqlanadi, yallig'lanish kamayadi va terini yumshaydi. Kosmetik vositalar tarkibidagi tirnoqgul komponentlari sezgir teriga foydali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham allergik reaksiyalarga moyilligi bo'lgan insonlarga tirnoqgul asosidagi kosmetik maxsulotlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Xulosa. Tirnoqgul o'simligi kosmetologiya sohasida muhim komponent hisoblanadi. Uning antibakterial, yallig'lanishga qarshi, antioksidant va yoshartiruvchi xususiyatlaridan yuz va soch parvarishi, quyoshdan himoya va terini tiklash maqsadida keng foydalaniladi. Kelajakda tirnoqgul asosidagi kosmetik vositalarning samaradorligini chuqurroq o'rganish va innovatsion formulalar yaratish ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin.



Adabiyotlar

1. O'zbekiston fanlar akademiyasi (2024). Dorivor o'simliklarning tibbiyot va kosmetologiyadagi o'rni. Toshkent.
2. Arora, D., Rani A., (2013). "A review on phytochemistry and ethnopharmacological aspects of Pharmaceutical aspects of genus *Calendula*." Asian Journal of Pharmaceutial and Clinical research, 6(3), 23-28.
3. Dinda, M., Mazumdar, S., Dasgupta, u., Ganguly, D.K(2016). "Collendula offecinalis and its protective properties against UV-induced skin damage." Journal of Herbal Medicine, 5(2), 100-110.
4. Elliot, S. (2019) "Carotenoids and skin healh." Journal of Dermotologikal Science, 40(4), 123-135
5. Muley, B., Khadabadi, S.S., Banarase, N.B (2019). "Phytochemical constitutents and pharmacological activities of *Calendula offecinalis* Linn (Astraceae): A review. "Topical Journal of Pharmaceutical Research, 8(5), 455-465.
6. Preethi, K. C., Kuttan, G., Kuttan, R. (2010). "Antibacterial and wound healing properties of *colendulla offecinalis*." Journal of ethnopharmacology, 118(3), 363-367.